

Brifing: Fanlar akademiyasi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tashkilotlari yosh olimlari o'rtasida o'tkaziladigan "Evrika" ko'rik-tanlovi

Bugungi brifing O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Fanlar akademiyasi Ilm-fan targ'ibi markazi hamda "Science and innovation" kompaniyasi hamkorlikda o'tkazilayotgan "Evrika" ko'rik-tanloviga bag'ishlanadi.

"EVRIKA" ko'rik-tanlovi 18 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan yosh olimlar va mutaxassislarning davlat va jamiyat oldida, fan va innovatsiya sohasidagi yuqori natijalarini munosib rag'batlantirish maqsadida ta'sis etilgan.

Tanlov har yili 5 ta yo'nalishda joriy etiladi:

1. Raqamlar dunyoni boshqaradi

(fizika, matematika, astronomiya sohasi va boshqa aniq fanlar)

2. Tabiat va inson

(kimyo, biologiya, zoologiya, geografiya, geologiya, seysmologiya, tibbiyot sohasi va boshqa tabiiy fanlar)

3. Texnika va IT texnologiyalar olami

(nanotexnologiyalar, muhandislik innovatsiyalari, sun'iy intellekt, robotlashtirish, asbobsozlik sohasi va boshqa texnika fanlari)

4. Jamiyat, tarix, madaniyat

(arxeologiya, tarix, etnografiya, filologiya, iqtisodiyot, huquq, san'at va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar)

5. Faol yosh olimlarga ayollar uchun

Mukofot aniq, tabiiy, texnika va gumanitar fanlar yo'nalishida salmoqli hissa qo'shgan tadqiqotlarning ilmiy natijalari uchun; iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning innovatsion rivojlanishini, shuningdek, yangi texnika va ilg'or texnologiyalar namunalarini ishlab chiqish uchun; yosh olimlarning ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasining ahamiyati ularning ilmiy yutuqlari darajasi (istiqbolli ilmiy muammoni hal etish, yangi ilmiy yo'nalish yoki ilmiy maktab yaratish) va ularning ilmiy natijalarini kelgusida qo'llash imkoniyatlarini hisobga olgan holda, shuningdek, yosh olimlarning ishlanmalarga qo'shayotgan hissasining ahamiyati ishlab chiqilayotgan yangi texnika va ilg'or texnologiyalar namunalarining ilmiy-texnikaviy darajasini, ularning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirishni, hamda bu boradagi ishlar ko'lamini hisobga olgan holda belgilanadi.

"EVRIKA" mukofoti g'oliblarga tanlov tashkilotchilari va yurtimizning eng taniqli olimlari tomonidan topshiriladi.

Taqdirlashga tavsiyalar tashkiliy qo'mita tomonidan taqdim etiladi.

Mukofot bir va bir necha (ya'ni 3 kishidan ortiq bo'lmagan) yosh olimlardan tashkil topgan guruhlariga ham beriladi. Mukofot guruh tomonidan qo'lga kiritilgan taqdirda mukofot puli teng miqdorda guruh ishtirokchilari orasida bo'linadi, diplom, statuetka hamda guvohnoma har bir ishtirokchi uchun alohida beriladi.

Mukofot faqat bir marotaba topshiriladi.

"Evrika"ning 2025-yilgi tanlovi uchun umumiy mukofot jamg'armasi 165 000 0000 (bir yuzi oltmish besh

million) so'mni tashkil qiladi.

1-o'rin uchun: bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravari;

2-o'rin uchun: bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravari;

3-o'rin uchun: bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravari.

Mukofot g'oliblari quyidagi bosqichlar asosida saralanadi va aniqlanadi:

2025-yil 1-maydan 2025-yil 15-iyulga qadar respublikamiz hududidagi barcha Oliy ta'lim muassasalari, Fanlar akademiyasi ilmiy tashkilotlarida tanlovning birinchi bosqichi tashkil etiladi. Tashkilot Kengashlari tomonidan har bir nominatsiya bo'yicha 1 nafardan g'olib aniqlanadi va g'olib bo'lgan nomzodlarning kerakli hujjatlari www.evrika-academy.uz saytiga joylashtiriladi.

2-bosqichda ya'ni 2025-yil 15-iyuldan 2025-yil 1-sentabrga qadar tanlov tashkiliy qo'mitasi tomonidan yurtimiz oliy ta'lim muassasalari va Fanlar akademiyasi ilmiy tashkilotlari tomonidan tavsiya etilgan barcha nomzodlarning hujjatlari o'rganib chiqiladi va har bitta nominatsiya bo'yicha eng yuqori ball to'plagan 10 nomzod keyingi bosqichga tavsiya etiladi. 2025-yil 1-sentabr sanasiga qadar barcha nominatsiyalar bo'yicha 10 nafar nomzodlar www.evrika-academy.uz sayti orqali e'lon qilinadi.

2025-yil 1-sentabrdan 2025-yil 1-oktabrga qadar tanlovning 3-bosqichi, ya'ni final bosqichi tashkil etiladi. Final bosqichida 2-bosqichdan o'tgan nomzodlar O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi binosida o'z loyihalari doirasida taqdimot qiladilar. Yurtimizning eng taniqli olimlari va soha mutaxassislaridan iborat tarzda tuzilgan hakamlar hay'ati tomonidan taqdimotlar 100 ballik tizimda baholanadi. Taqdimot natijalariga ko'ra, har bir nominatsiya bo'yicha I, II, III o'rin g'oliblari aniqlanadi.

Nomzod taqdim etilgan kengash tomonidan ilmiy yutuqlari haqidagi tavsifiy xulosaga ega, hamda mukofotga taqdim etilayotgan tadqiqot natijalari bundan avval ommalashmagan va boshqa mukofotlarga tavsiya etilmagan bo'lishi shart.

Nomzodlarni taqdim etish uchun zarur me'yoriy hujjatlar (www.evrika-academy.uz saytiga 15-iyul sanasiga qadar joylashtirilishi lozim):

$\frac{3}{4}$ Nomzodni mukofotga taqdim etish bo'yicha Ilmiy kengash bayonnomasi;

$\frac{3}{4}$ Nomzodning taqdim etayotgan loyihasi, ilmiy yangiligi, tadqiqot natijasi;

$\frac{3}{4}$ Nomzodning ma'lumotnomasi;

$\frac{3}{4}$ 3x4 fotosurat;

$\frac{3}{4}$ Ilmiy maqolalar ro'yxati

G'oliblar 2025-yil 10-noyabr "Butun jahon ilm-fan kuni"da bo'lib o'tadigan tantanali taqdirlash marosimida taqdirlanadilar. G'oliblarga maxsus statuetka, diplom, guvohnoma va pul mukofoti topshiriladi.

Ilm-fan sohasida yuksak marralarni zabt etishga intilayotgan barcha yoshlar uchun — "EVRIKA" loyihasi imkoniyat yaratmoqda!

Bu tanlov ilm-fan olamida o'z o'rnini topmoqchi bo'lgan har bir iqtidorli va tashabbuskor yosh uchun yaxshi imkoniyat. Siz ham ushbu tanlovda faol ishtirok eting, o'z yutuqlaringiz bilan ilm-fan taraqqiyotiga munosib hissa qo'shing!

"Evrika" ko'rik tanlovi haqida batafsil www.evrika-academy.uz hamda Fanlar akademiyasi rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali tanishishingiz mumkin!